

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM

4-BOSQICH 404 - GURUH TALABASI

DO`SOVA YULDUZ YULDASHEVNANING

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: "Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish"

Bakalavr darajasini olish uchun



Urganch – 2012 yil

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**AL -XORAZMIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

PEDAGOGIKA FAKULTETI KUNDUZGI BO`LIM

4-BOSQICH 404 - GURUH TALABASI

DO`SOVA YULDUZ YULDASHEVNANING

***“Boshlang`ich sinflarda insho yozishga o`rgatish
(3-4-sinf misolida)” mavzusidagi***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ta'lim yo`nalishi: “Boshlang`ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish”

Bakalavr darajasini olish uchun

Ilmiy rahbar:

katta o`qituvchi M. Tilavova

Taqrizchi:

Urganch shahridagi 6-son umumta`lim maktab
boshlang`ich sinf o`qituvchisi Abdullayeva I.

Ish ko`rildi va himoya

qilishga ruxsat berildi.

«BTN va M» kafedrasining

2012 yil «_____» dagi

№____bayonnomasi.

Kafedra mudiri: dots. S.Ollaberganova

Urganch – 2012

MALAKAVIY - BITIRUV ISHINI BAJARISH

GRAFIGI.

№	Loyiha bosqichlarining nomi	Nazorat vaqti	Rahbarning talaba tomonidan bajarilgan ishlarning ahvoli haqidagi belgisi, sana,imzo
1.	Mavzuni kafedrada tasdiqlash	Sentabr 2011	Bajarildi
2.	Malakaviy - bitiruv ish rejasini tuzish	Sentabr 2011	Bajarildi
3.	Mavzu bo'yicha manba yig'ish, maxsus adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish. Uzluksiz ta'lim tizimini isloh qiluvchi davlat hujjatlarini o'rganish	Oktabr Noyabr 2011	Bajarildi
4.	Mavzuning nazariy pedagogik - metodologik asoslarini o'rganish	Dekabr 2011	Bajarildi
5.	Yechilayotgan muammoni amalga oshirish uchun aniq didaktik va tarqatuv materiallarini ishlab chiqish	Yanvar 2012	Bajarildi
6.	Noan'anaviy o'qitish usularidan foydalanish uchun metodologik va pedagogik tajribalarni o'tkazish.	Fevral 2012	Bajarildi
7.	Tajriba natijalarini tahlil etish va ishni taqrizdan o'tkazish.	Mart 2012	Bajarildi
8.	Rahbar tomonning tugallangan bitiruv - malakaviy ishlarini taqrizdan o'tkazish.	Aprel 2012	Bajarildi
9.	Tugallangan ishni rahbar bilan birgalikda kafedraga taqdim qilish.	May 2012	Bajarildi

Bitiruvchi talaba_____

(imzo)

Malakaviy – bitiruv ishi

rahbari_____

(imzo)

Urganch Davlat Universiteti “Pedagogika” fakulteti «Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi» kafedrası

Malakaviy - bitiruv ishini tayyorlash bo'yicha topshiriq.

Talaba Do'sova Yulduz Yuldashevna

1.Bitiruv - malakaviy ishi mavzusi: Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish (3-4 sinf misolida)

2. Pedagogika fakulteti Ilmiy Kengashining «_31_» _oktabrdagi yig'ilishida muhokama qilinib, №_2_buyruq bilan tasdiqlangan.

3. Talabaning tugallangan ishini topshirish muddati._may 2012

4. Bitiruv - malakaviy ishi tarkibi va bo'limlarining qisqacha mazmuni:

a) Bitiruv - malakaviy ishining nazariy qismi(bitiruv - malakaviy ishida qo'llanadigan savollar ro'yxati) 3-sinfda insho yozishga o'rgatish, 4-sinfda insho turlari.

b) Maktabdagi pedagogik – psixologik tajribalarni materiallarini (rasm, chizmalar, o'quvchilar ishlari) rasm, chizma jadvallar

5. Topshiriq berilgan vaqti sentabr 2012

1.Bitiruv - malakaviy ish mavzusi kafedrada tasdiqlangandan keyin bitiruv - malakaviy ishi topshirig'i va uni bajarish grafigi ikki nusxada to'ldiriladi. Ularning biri talabaga beriladi, ikkinchisi kafedrada saqlanadi.

U kafedrada bitiruv - malakaviy ishi papkasida saqlanib, talabalarning malakaviy-bitiruv ishini bajarishi muhokama qilinadigan yig'ilishlarda ko'rib boriladi. Shu haqda kafedra yig'ilishi bayonnomasida va bitiruv- malakaviy ishi topshirig'ida qayd qilinib boriladi.

DAK yig'ilishida bitiruv- malakaviy ishini himoya qilishdan avval, ish kafedra ko'rigidan o'tkazilib DAK ka qo'yilish masalasi hal qilinadi. Shu haqda kafedra yig'ilishi bayonnomasida va bitkazuvchi_Do'sova Yulduzning bitiruv - malakaviy ishi topshirig'i grafigi qo'shib taqdim qilinadi.

Tasdiqlayman.

“Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi”

kafedrası mudiri: _____ dots.S.Ollaberganova

Rahbar_____

Topshiriqni bajarish uchun qabul qildim _____

Bitkazuvchi talaba imzosi._____

Bitiruv - malakaviy ish loyihasi himoyaga qo'yildi.

Kafedra yig`ilishining _____2012 yildagi bayonnomasi.

Kafedra mudiri: dots.S.Ollaberganova

Kotiba: Ro`zmetova S.

Bitiruv - malakaviy ish loyihasi rahbari: _____

Mavzu: Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish
(3-4-sinf misolida).

Reja:

Kirish.

I.bob. bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari.

1.1. bog'lanishli nutqqa oid asosiy ko'nikmalar.

II.bob. 3-sinfda insho yozishga o'rgatish.

2.1. 3-sinfda insho yozish uchun material to'plash, rejasini tuzish, inshoni yozishga tayyorlanish.

2.2. 3-sinfda rasm asosidagi inshoni o'tkazish metodikasi.

III.bob. 4-sinfda o'tkaziladigan insho turlari va ular ustida ishlash.

3.1. 4-sinfda hikoya tarzidagi insholarni o'tkazish yo'llari.

3.2. 4-sinfda o'quvchilar inshosini tahlil qilish.

Xulosa.

Kirish.

Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong
va tafakkurning ifodasi avlodlar o'rtasidagi
ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali
namoyon bo'ladi.

I.A.Karimov.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ona tilidan egallagan bilim saviyasi ko'pdan beri hammamizni tashvishga solayotgan hech kimga sir emas. Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ijodiy fikrlash darajasi eng asosiy muammolardan biridir. Biz ko'p hollarda o'quvchini daryo o'rtasida turib, suv izlayotgan shaxsga o'xshatamiz. Daryo to'la suv – bola chanqoq. Lug'atlarimiz suvga to'la, o'quvchining bisotida so'z kam. Bu holat avvalo, ona tili ta'lim mazmuni bilan chambarchas bog'langan. Ta'lim mazmuni o'quv rejalari, dastur va darsliklar hamda o'quv tadrijiy qo'llanmalarda o'z ifodasini topadi. Ona tili fanini o'qitishning samaradorligi juda ko'p omillar bilan chambarchas bog'langan. Bular ichida ona tili ta'limi mazmuni muhim va yetakchi sanaladi. Chunki samaradorlik avvalo o'quvchilarga "Nimani o'qitish" masalasi bilan chambarchas bog'liq. Ona tili ta'limidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan zaruriy bilimlar hamda shu bilimlarga muvofiq keladigan malaka va ko'nikmalar tizimi to'g'ri belgilansagina "Qanday o'qitish kerak" degan savolga javob topish mumkin. Demak, samaradorlik avvalo ana shu ikki omil bilan bevisita aloqadordir. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilanmog'i kerak. Ona tili orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiylik, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Ona tili mashg'ulotlarida asosiy e'tibor o'quvchilarga tilning grammatik qurilishi emas, balki ularning so'z boyligini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, fikrni sharoitga mos ravishda ifodalay olish ko'nikmalarini kengaytirishga qaratilmog'i lozim. Yosh avlodni tarbiyalashda o'z ona tilida aniq, tushunarli, ta'sirchan, chiroyli so'zlarga o'rgatish masalasini asosiy o'rinda turadi. O'quvchilarni savodli, o'z fikrini to'g'ri va erkin bayon qila oladigan, nutq madaniyatiga ega kishilar qilib tarbiyalash vazifasi dastlab boshlang'ich ta'lim bosqichida amalga oshiriladi. Nutqni yaxshi egallagan, o'z tilining imkoniyatlaridan keragicha foydalana oladigan o'quvchi, albatta boshqa o'quv predmetlarini ham ancha oson va to'liq o'zlashtiradi, ularda bilim va madaniyatga

bo'lgan intilish kuchayadi. On atilining boshlang'ich kursida, asosan, nutqiy tadbirkorlikni rivojlantirish, orfoepik va imlo savodxonligini oshirish, so'z va uning ma'nolari ustida ishlash, nutq sharoitiga mos ravishda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish malakalarini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. O'quvchilarning o'rganishi uchun tavsiya etilgan har bir mavzu ularning yosh xususiyatlari va ona tilini o'rganish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holada berilishi hamda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi metod va usullarni to'g'ri tanlay olishi kerak. Shunday qilsagina, biz o'ylagan natijaga erishishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ona tilini o'rganish imkoniyatlari 6-7yoshdan boshlanadi. Bu davrda bola maktab talablariga ancha javob bera olishi kerak. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili o'quv fanini o'rganish asosan asosiy mashg'uloti o'qish ekanligini anglagan, fikr tushunchasi bog'cha yoshidagi bolalik davriga nisbatan ancha rivojlangan, eng muhimi psixologik jihatdan o'qishga tayyor davr sanaladi. Ta'limga psixologik tayyorgarlik deganda,- deb qayd qiladi E.G'oziyev, bolaning obyektiv va subyektiv jihatidan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. Bu yoshdagi bolalarda idrok ancha o'tkirlashadi, o'qishga qiziquvchanlik oshadi, hayoli yorqinlashib, xotirasi chiniqadi, tafakkur doirasi nisbatan kengayib, ijodiy fikrlashga moyillik ortadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida yaqqol obrazli xotira ancha taraqqiy etgan bo'ladi. Bu yoshda o'quvchilar ko'rgan, kuzatgan narsalarini xotirada uzoq vaqt saqlay oladi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida ko'rsatmali vositalardan: o'quv filmlari va audiovizual vositalardan unumli foydalanishga jiddiy e'tibor qaratishga to'g'ri keladi. 7-11yoshli bolalar o'qiganini yoki eshitganini yetarli darajada tushunadi, o'z fikrlarini ona tilida izchillik bilan bayon qila oladi; mantiqiy operatsiyalarni kuzatish, taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish singarilarni bimalol bajara oladi, o'rganganlari asosida umumlashma hosil qilishi mumkin. O'qituvchi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan qaysi yo'nalishda ish tutsa, ular tez shunga moslashadi. O'quvchini fanga qiziqtirish, undagi qobiliyatni yuzaga chiqarish kichik sinf o'quvchisidan xos uslubiyatni, bolajonlikni talab etadi. Shu sababli ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchi nafaqat qayta totirlashga asoslangan o'quv topshiriqlardan, balki qisman ijodiy topshiriqlardan ham unumli foydalanish kerak.

U oilada, bog'chada ko'p so'zlarni ishlatsa-da, hali ularning ma'nosini chuqur anglamaydi, 8-9 yoshli bolalar esa bir yildan ziyodroq tajribaga ega bo'lgan bolalar bo'lib, ularda dars jarayonida mustaqil xulosalar chiqarish ancha tarkib topgan bo'ladi. Mashhur psixolog V.A.Kruteskiyning ta'kidlashicha, bu davrda ular o'z oldilariga "Nima uchun bunday?"-"Nima uchun shu narsani o'rganish kerak?" degan savolni qo'ya oladigan bo'lishadi. Bu davrda ular "Nima uchun o'z ona

tilimizni bilishimiz kerak?” degan savolga javob bera oladilar. Ona tilini o’rganish ularning nutqiy muloqot doirasini kengaytirishini, badiiy-ilmiiy adabiyotlarni o’rganishlariga keng yo’l ochib berishini anglay boshlaydi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari o’z idroklarining aniqligi, sofligi, o’tkirligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Ular har bir o’rgatilayotgan til materiallariga sinchkovlik bilan qaraydilar, dars jarayonida duch kelinadigan so’zlarni tez qabul qiladilar. Ona tilini o’rganishga bo’lgan intilishlari ancha ortadi. Bu yoshdagi o’quvchilarda tarkib topa boshlagan sinchkovlik idrokni ancha o’tkirlashtiradi. Ba’zan bu yoshdagi bolalar kattalarning diqqat e’tiboridan chetda qolgan mayda-chuydalarni ham payqaydilar. Shu bois o’qituvchi dars mashg’ulotlarida rivojlantirishi lozim. O’quvchilarning o’qishi, bilim olish xususida gap ketar ekan, diqqatning qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ham unutmaslik lozim. Diqqat,- deb qayd qilinadi, “O’zbek tilining izohli lug’atida,-e’tiborni bir joyga to’plamoq, yig’moq, uni bir narsaga qaratmoq demakdir”. Boshlang’ich sinf o’quvchilarining diqqati xususida fikr yuritilganda uni yetarli darajada barqaror emasligini unutmaslik kerak. Ona tili mashg’ulotlarida o’quvchilarning ko’p hollarda tutilishi, to’xtab qolishi, so’zni burro, aniq talaffuz eta olmasligi, yozishda ba’zan harf, bo’g’in, so’zlarning tushib qolishimana shu fiziologik holat tufayli sodir bo’ladi. Psixologiya fanidan olib borilgan qator tadqiqotlar boshlang’ich sinf o’quvchilarining darsda 30-35 daqiqadan ortiq o’z diqqatini muayyan obyektga qarata olmasligini ko’rsatadi. Bu ona tili mashg’ulotlarida ta’lim usullarini tez-tez o’zgartirib turishni, o’quv topshiriqlarining rang-barangligini taqozo qiladi. Chunki ta’lim usuli yoki o’quv topshirig’i o’zgartirilishi bilan o’quvchilarning unga munosabati ham o’zgaradi. Boshlang’ich sinf o’quvchilari diqqatidagi bu xususiyat vaqti-vaqti bilan norasmiy darslarning turli-tuman ko’rinishidan foydalanishni talab etadi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda xotira ham o’ziga xos xususiyatlarga ega. “Xotira” deganda shaxsning o’z hayotiy tajribasini saqlab turishi va keyinchalik esga tushirishi tushuniladi. Psixologik adabiyotlarda xotiraning ikki turi: 1) so’z mantiq xotirasi; 2) ko’rgazmali harakat xotirasi mavjudligi qayd qilinadi. Boshlang’ich sinf o’quvchilarida mantiqiy xotiradan ko’ra ko’rgazmali xotira ancha rivojlangan bo’ladi. Shuning uchun ham ona tilini o’rganish jarayonida nazariy ma’lumotlarni o’zbek tilining imlo qoidalarini tushuntirish orqali o’rganishdan ko’ra sinf taxtasi yoki jadvalda yozilgan so’zlarni rasmda aks etgan narsalarni tushunish ancha oson kechadi. Ma’lumki, 8-9yoshli bolalarda xotira kuchli bo’ladi. Kichik maktab yoshidagi o’quvchilar o’z oldilariga o’quv maqsadi qo’yishda qiynaladilar. Shu boisdan ham ular faoliyatida ixtiyorsiz esda qoldirish muhim o’rin egallaydi. O’qituvchi boshlang’ich sinf o’quvchilarining yoshi bilan bog’liq shu xususiyatni hisobga olgan holda har bir soatlik ona tili darsidan ko’zlangan maqsadni o’quvchilar ongiga singdirishga alohida e’tibor qaratishga to’g’ri keladi. O’quvchi

dars mashg'ulotidan ko'zlangan maqsadni tushunib yetsa, uni o'rganishga qiziqishi ortadi va o'quv materialini xotirada saqlab qolishi osonlashadi. Xotira tarbiya mahsuli. Xotiraning mahsuldorligini oshirish uchun ta'lim jarayonida o'zini-o'zi nazorat qilish; o'rganilgan materialni esga tushirish; mashq qilishdan unumli foydalanishga to'g'ri keladi. Ona tili mashg'ulotlarining samaradorligi tilga olingan ana shu vositalar bilan chambarchas bog'langan. Talaffuzi va imlosi murakkab bo'lgan bir qator so'zlarni bir marta aytishi yoki yozib ko'rsatishi bilan o'quvchi xotirasiga kiritish qiyin. Bu so'zlarning imlosini o'zlashtirish faqat qayta-qayta mashq mahsuli bo'lishi mumkin. Bilishda hayolning ham katta ahamiyatga ega ekanligini aytish darkor. Hayol deganda, o'ylash, fikrlash jarayoni tushuniladi. Hayolning tarkib topishi o'quv faoliyatining ta'siri va talablari asosida amalga oshadi. Bolalarning dars jarayonidagi ishtiroki mashg'ulotlarda bo'ladigan savol-javoblar, turli xildagi o'quv topshiriqlarini bajarish, ertak va hikoyalar o'qilishi, televideniya eshittirishlarini tomosha qilishi, kinofilmlarni ko'rishi, sayohatlarga borishi-hayolni rivojlantirish vositalaridir. Hayolning eng yuksak ko'rinishi ijodiy hayoldir. Ijodiy hayol surishga tayyor bo'lmagan o'quvchi bilimlarni o'zlashtirib olishda muayyan manbadan chetga chiqa olmaydi. Berilgan rasmlar yoki biror bir mavzu asosida og'zaki hamda yozma matn tuzishi biror harakatni bildiradigan, uning son-sanog'ini, miqdorini bildiradigan so'zlarni o'zaro qiyoslab, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashma va xulosalar chiqarish ijodiy hayol mahsuli hisoblanadi. Bu psixologik jarayonlar bog'lanishli nutqning shakllaridan biri bo'lgan insho ustida ishlashda ahamiyat kasb etadi. Bizning bitiruv malakaviy ishimiz "Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish" deb nomlandi. Mavzuning dolzarbligi: Ma'lumki hozirgi kunda umumta'lim maktablarida o'quvchilarni har tomonlama barkamol inson qilib tarbiyalash asosiy vazifa qilib qo'yilgan. Ayniqsa, o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o'zgalar fikrini anglash, o'z fikrini og'zaki va yozma bayon qila olish, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqot qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim vazifalardandir. Shu nuqtai nazardan mavzu dolzarb hisoblanadi. Mavzuning yangiligi: Mazkur bitiruv malakaviy ishni bugungi kunga qadar o'rganish obyekti bo'lgan emas. Mavzuning metodologik asosi: Mavzu uchun Prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, Ta'lim to'g'risidagi Qonun, "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi", uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti, "Ona tili oq'itish metodikasi" darsligi, umumiy o'rta ta'lim darsliklari, Boshlang'ich ta'lim jurnallari, o'qituvchilar uchun metodik tavsiyanomalar metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Mavzuning o'rganilish obyekti: Boshlang'ich sinflarning "Ona tili" darsligi 3-4-sinflar uchun va 3-4-sinf o'quvchilari o'rganish obyekti qilib olindi. Mavzuning nazariy ahamiyati: Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish 3-4-sinf misolida mavzu bo'yicha

nazariy bilimlar bayon qilindi. Unga inshoning lug'aviy ma'nosi, insho turlari, boshlang'ich sinflarda o'tkazilishi bo'yicha fikrlarimizni tizimli ravishda ifodaladik. Mazkur bitiruv malakaviy ishimiz boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida insho o'tkazish bo'yicha metodik yordam bo'lib xizmat qiladi.

1.1. Bog'lanishli nutqqa oid asosiy ko'nikmalar.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, o'zaro bog'langan, ma'noli qismlarga bo'linadigan nutq – bog'lanishli nutq deyiladi. Bog'lanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni maktab sharoitida esa o'qituvchi bergan savolga o'quvchilarning keng, mukammal og'zaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin. Boshlang'ich sinflar metodikasida bog'lanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Berilgan savolga keng mukammal javob;
2. O'qilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni o'rganish; o'quvchilar lug'atini faollashtirish bilan bog'liq holda har xil matnli mashqlar;
3. Muntazam o'tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;
4. O'qilgan matnni turli variantda og'zaki qayta hikoyalash;
5. Berilgan mavzu, rasm kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o'quvchilarning og'zaki hikoyasi;
6. Badiiy matnni hikoya qilish, yod olish, o'quvchilar saviyasiga mos matnlarni yoddan yozish;
7. Ertakni tayyorlanmasdan oldin aytish, kichik she'r, hikoya tuzish;
8. Namunasi berilgan badiiy ommabop matn asosida bayon yozish;
9. O'qituvchi bergan matnni og'zaki va yozma qayta tuzish, tanlab qayta hikoya qilish va bayon hikoyani sahnalashtirish kabilar;
10. Har xil turdagi yozma insho. Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog'lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo'lishida, avvalo material manbaiga, tematikaga, shuningdek janriga, til xususiyatiga mashq turiga rioya qilinadi. O'quvchilar nutqini o'stirish ularga aniq ko'nikmalarni singdirish

demakdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil mashq sifatida bog'lanishli nutqni o'stirishdan quyidagi ko'nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to'liq yoritish ko'nikmasi. Masalan, "Biz uy ishlarida ota-onamizga qanday yordamlashamiz?" mavzusi berilsa, o'quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.
2. Inshoni asosiy fikrga bo'ysundirish ko'nikmasi. Bolalar ishi ma'lum fikrni tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o'zlarining baxtli hayotidan g'ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni ifodalaydi.
3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo'lgan materialni yig'ish. Bu bayonga ham taalluqli bo'lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to'g'ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.
4. Materialni tartibga solish, uni tegishli izchillikda joylashtirish, matn rejasini tuzish va shu reja asosida yozish ko'nikmasi;
5. Fikrni adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri ifodalay olish ko'nikmasi. Buning uchun bayon va inshoni nutqiy shakllantirishdan oldin unga til tomonidan tayyorgarlik ko'riladi.
6. Matnni og'zaki va yozma tuzish, inshoni yozish ya'ni barcha tayyorgarlik ishlarini yakunlash ko'nikmasi;
7. Yozilgan matnni takomillashtirish ko'nikmasi. Bu ko'nikma o'z ijodiga tanqidiy munosabatda bo'lish asosida tarbiyalanadi. O'quvchilar material tanlashda va uni joylashtirishda, so'z tanlash, so'z birikmasi va gap tuzishda o'zlari yo'l qo'ygan kamchilikni, hatoni fahmlashga o'rgatib boriladi. O'qituvchidan o'quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o'quvchilarni nimaga o'rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o'rnini aniq ko'z oldiga keltirish talab etiladi. Shuning uchun o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishga oid mashq turlarining bir yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o'quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur. Metodik an'anaga ko'ra matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda bular, asosan, tasvir yoki muhokama elementlari

bo'lgan hikoya tarzida uchraydi. Har uchala janr uchun foydalaniladigan material harakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish kitobi»da bunday hikoyalar ko'plab berilgan. Tasvirda sujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi, unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar o'qish kitobida berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, "Bizning sinfimiz", "Bahor keldi" kabi. Tasvirga hos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metofoalar ko'p bo'ladi. Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi. O'quvchilar inshoda muhokama elementlaridagina foydalanadilar. Masalan, "Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas", "Paxta bizning milliy boyligimiz" mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki inshi yozdirilsa, muhokama elementi albatta bo'ladi. Bolalarning bog'lanishli nutqini egallash darajasiga qarab, matnga tasvir va muhokama elementlari kiritib boriladi. Insho o'quvchining ma'lum bir mavzuni mustaqil ravishda ochib bera olish, o'z fikrlarini yozma shaklda to'g'ri, ravon, savodli bayon qila olish ko'nikma va malakalarini shu mavzu bo'yicha bilimlarini namoyish etuvchi ijodiy matn - kichik bir asardir. Yozuvchi va shoir, olim va muhbir o'zi yozadigan asar, ilmiy ish, maqolaga katta ma'suliyat bilan qaragani kabi o'quvchi ham insho yozishdan oldin unga har tomonlama tayyorlanishi lozim. Zero, insho o'quvchi ma'naviyati va ma'rifati ko'zgasidir. Unda o'quvchining bilimlari xis tuyg'ulari, fikrlarini bayon etish ko'nikma va malakalari o'z aksini topadi. Inshoning har bir turi o'z shakliy va mazmuniy xususiyatlariga ega. Insho-ijodiy mehnatning oliy ko'rinishi, murakkab aqliy mehnat mahsulidir. U muallifdan o'z fikrlarini zarur dalillar asosida mantiqan izchil va badiiy tarzda, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri izhor etishni talab qiladi. Shuning uchun ma'lum mavzuda insho yozishdan oldin shu mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni chuqur o'rganib chiqish, tezis yaratish, dalillash uchun ko'chirmalarni yig'ish, homaki rejani shakllantirib olish talab qilinadi. Didaktik maqsadlarga ko'ra insholar ikki xil bo'ladi: 1) ta'limiy insholar; 2) sinov insholari. Ta'limiy insholar sinfda yoki uyda o'quvchi tomonidan yozilib, ijodiy fikr yuritishga, mavzuni to'g'ri bayon qilishga qaratiladi.

Sinov insholari o'rganilgan mavzularga doir bilimlarni, insho yozish ko'nikma va malakalarini sinash uchun yirik mavzular tugagandan so'ng, choraklar yoki o'quv yili oxirida o'tkaziladi. Insho arabcha so'z bo'lib, "yaratish", "bino qilish", "qurish" ma'nosini beradi. Inshoda muallifning so'z qo'llash mahorati, fikriy tafakkuriy bilim va dunyoqarashi, savodi namoyon bo'ladi. Insho mazmun va mohiyatiga ko'ra 3 turli bo'ladi:

1. Adabiy mavzudagi insholar;

2. Adabiy- ijodiy mavzudagi insholar

3. Erkin mavzudagi insholar

Adabiy mavzudagi insholarga ona tili, adabiyot darsligida qayd qilingan, o'qituvchi tomonidan tushuntirilgan mavzular asosida yoziladigan insholar kiradi.

Adabiy-ijodiy mavzudagi insholarga adabiyot, ona tili darslarida o'tilgan ma'lumotlarga o'quvchining ijodiy munosabati, shaxsiy fikrlari qo'shib ifodalanadigan insholar kiradi.

Erkin mavzudagi insholar adabiyot fan dasturida qayd etilmagan mavzularda yoziladi. Boshqacha aytganda, o'quvchining ma'lum bir mavzuga oid bilimlari, ahloqiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashi, fikr va mulohazalarini aks ettiruvchi insholar erkin mavzudagi insholardir. Birinchi sinfda tanish bo'lgan oddiy yozma tasvirlar, rasm asosidagi hikoya, turli xil maktublar ham inshoga o'xshaydi. Lekin ularni haqiqiy insho deb bo'lmaydi. Chunki bunday yozma ishlarda o'quvchining mustaqilligi va ijodiyligi chegaralangan bo'ladi. Muayyan badiiy asar yoki undagi qahramonlar taqdiri tahlil qilinadi. Adabiy-ijodiy mavzudagi inshoda biror badiiy asar va unda ishtirok etuvchi qahramonlar taqdirini tahlil qilishda o'quvchi o'z mustaqil fikri bilan yondashadi. Erkin mavzudagi insholarda o'quvchining bir mavzu bo'yicha turli fanlardan olgan bilimlari va uning shaxsiy taassurotlari birgalikda ifodalanadi.

2.1. 3-sinfda insho yozish uchun material to'plash, rejasini tuzish inshoni yozishga tayyorlanish.

Boshlang'ich sinflar dasturida o'quvchilarga beriladigan grammatik bilim va ko'nikma nutqqa hamda imloga oid malakalar o'quvchilar tomonidan aytilgan so'z va ayrim gaplardagina emas, mantiqiy fikrlagan holda keltirilgan misollarda insholarda qo'llansagina to'liq va puxta o'zlashtirilgan hisoblanadi deb ko'rsatilgan. Shuning uchun ham ona tili darsliklarida inshoga oid bir qator matn rasm hamda rejalar berilgan. Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo'lib, maktabda alohida o'rin tutadi, barcha nutqqa oid mashqlar ma'lum mazmunda inshoga bo'ysunadi. Insho 1-sinfda kichik og'zaki axborot va extirosli hikoyadan boshlanib, o'z fikrini ifodalashga, o'quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta'lim tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo'lib, his-hayajon uyg'otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko'rgan-kechirganlari va o'zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab, natija, bog'lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o'rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi. O'quvchilarda o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug'diradi. Insho asli arabcha so'z bo'lib, bu so'zning ma'nosi hozirda ancha torayib, asosan, o'quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma'nosida qo'llanadi. Insho ijodiy ish bo'lib, u o'quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o'ylash, mantiqiy bog'lanishni belgilash, so'z, so'z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o'zaro bog'lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o'quvchidan aqliy kuchini to'la ishga solish bilan birga, o'z ma'naviy faoliyatini boshqarish ko'nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo'shiladi. O'quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo'lgani uchun, "o'ziniki"ni yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi-inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar o'quvchilar nutqini o'stirish, aqliy-ijodiy o'sishiga mo'ljallangan yangi dasturga o'tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada oshadi. Og'zaki va yozma inshoga o'rgatish jarayonida o'quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o'z inshosini aniq fikrga bo'ysundirish, material to'plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko'nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, "texnik" vazifalar ham amalga oshiriladi, ya'ni matnni xat boshidan yozish, hoshiyaga

rioya kabi talablarga ham amal qilinadi. Og'zaki va yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi. Insho material manbaiga ko'ra 3ga bo'linadi:

- 1) O'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari eshitgani haqidagi, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;
- 2) Kitob materiali, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;
- 3) Turli manbalar materialidan foydalanadigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik metodiga ko'ra insho 2 turli bo'ladi:

1. sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;
2. alohida mavzu asosida yakka tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi. Rasm asosida inshoning 3 asosiy turi bor:

- 1) rasmlar seriyasi yoki rasmlari asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;
- 2) sujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;
- 3) rasmni tasvirlash (tasviri insho).

O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviri insho yozishga o'rgatiladi. Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2-sinfda rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni

kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayllari haqida o'qituvchi rahbarligida keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza bilishlari, 3-sinfda rasmlar asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib, hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi. 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi. Boshlang'ich sinflarda yozma inshoga nisbatan og'zaki insho ko'p o'tkaziladi. Og'zaki hikoya tuzish bola maktabga kelgan birinchi kunlardanoq boshlanadi, yozma insho esa 1-sinf oxiri va 2-sinfdan boshlab o'tkaziladi. Og'zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko'riladi. 3-4-sinflarda inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi, bunda o'quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish, ikkinchidan insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish, uchinchidan mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi.

Inshoga tayyorgarlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi. Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi 3 bosqichga bo'linadi:

- 1) Material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;
- 2) Mavzuga oid va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;
- 3) Inshoni nutqiy shakllantirish ya'ni insho matnini tuzish, uni yozish, takomillashtirish, xatolarni to'g'irlash va tekshirish.

3-4 sinflarda birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni

yozishdan ancha ilgari boshlanadi. Tabiat hodislarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi. rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsni ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho yozish uchun 2-sinfda odatda, bir dars zarur bo'lib qolsa, ikkinchi darsdan 15-20 daqiqa 3-4-sinflarda bir yoki bir yarim dars, ayrim vaqtlarda 2 darsgacha ajratiladi. Bulardan tashqari, insho tahliliy va xatolar ustida ishlash uchun 20-25 daqiqa vaqt ajratiladi. Bunda eng yaxshi yozilgan insholar tahlil qilinadi, imloviy, punktatsion, nutqiy, mantiqiy xatolar va mazmundagi yetishmovchiliklar ustida ishlanadi. 3-4-sinflarda insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi.

Mazmuni, inshoning vazifasini e'lon qilish uni o'quvchilar bilan muhokama qilish;

1. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish maqsadida suhbat o'tkazish;
2. Reja tuzish yoki avval tuzilgan rejaga aniqlik kiritish;
3. Nutqiy matnni tayyorlash, ya'ni zarur so'zlarni yozish, so'z birikmasi yoki bog'lanishli matnning ayrim qismini tuzish, imlosi qiyin so'zlarning yozilishini tushuntirish va boshqalar;
4. Darsnin g asosiy qismi bo'lgan inshoni yozish. Bu jarayonda o'quvchilar inshoni yozayotganlarida, o'qituvchi ular ishini kuzatadi, ayrim o'quvchilarga individual yordam beradi;
5. O'quvchilar yozgan insholarni tekshiradilar, kamchiliklarni to'ldirib, xatolarni to'g'irlaydilar. Boshlang'ich sinflarda bolalar inshoni oqqa ko'chirmaydilar, kerakli tuzatishlarni ehtiyotlik bilan kiritadilar. Bunday tuzatishlar uchun insho bahosi pasaytirilmaydi, aksincha matnni yaxshi to'g'irlagan o'quvchi rag'batlantiriladi;

O'quvchilar inshoni o'qituvchiga tekshirish uchun topshiradilar. O'qituvchi ikki kun ichida tekshiradi.

Keying ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 daqiqa vaqt ajratib tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi. Insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi. O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi.

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlari seriya asosidagi insho bilan tanishtirish;
2. Rasmlari reja asosida matn rejasini tuzish;
3. Reja qismlariga mos ravishda matnni xat boshiga bo'lish va har birini xat boshidan yozish;
4. Insho matnni mustaqil tekshirish va takomillashtirish.

Quyidagi asosiy talablarga rioya qilinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi, mazmun mavzuga mosmi ya'ni yetarli yotilganmi, haqiqatga mos keladimi?
2. Reja kompozitsiyasiga izchillik, reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?
3. Janri uslubi hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilganmi, insho mavzusi va vaziyatini yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylilik elementlari bormi?
4. Insho hajmi so'z, gap soni, lokonizm yoki so'zlilik;
5. Leksika so'zlardan to'g'ri foydalanish, sinonim, antonim, frazeologizmlardan foydalanish ;
6. Sintaksis gapning hajmi, sintaktik tuzilmalarning bir xil yoki har xilligi, murakkab tuzilmalar bormi?
7. Imloviy va punktuatsion savodxonlik , xatolar;
8. Husnixat tashqi tomondan shakllantirish, hoshiyaga xat boshidan yozishga, sarlavhani to'g'ri jonlantirishga rioya qilish.

Nutqiy xatolar 3 turga ajratiladi: lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy. Boshlang'ich sinflarda lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Bir so'zni qayta – qayta ishlatish . bunday xatoning kelib chiqishiga sabab birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga

olmoshlardan foydalana olmaydi. Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini tez tuzata oladi.

2. So'zning ma'nosini yoki ma'no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolani nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi;
3. Shevaga xos so'zlardan foydalanish, o'quvchilar bunday so'zlarni otalarning nutqiy sharoit ta'sirida qo'llaydilar. Ularda adabiy tilde qo'llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so'zlarni ishlatmaslik ko'nikmasi hosil qilinadi. Leksik xatolar xilma-xil bo'lgani uchun uni to'g'irlash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo'li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o'qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so'zlarning ma'no qirrasini tushuntirishdir. Morfologik uslubiy xatolarga so'z shaklini so'z o'zgartiruvchi va so'z yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri qo'llashdan keli chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik uslubiy xatolarga so'z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir.

Mantiqiy xatolar:

1. tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur lavha dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi

ruhiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. mantiqiy izchillik buziladi. Masalan zavodda paxtadan ip yigiriladi. Terimchi paxtani paxta terish mashinasida terdi. Bunday mantiqiy xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish jarayonida to'g'irlaydilar.

O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'irlash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi.

1. Nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarlarida to'g'irlash;

2. Sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash;
3. Ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash , xatoni topish, tushuntirish va to'g'irlash;
4. Yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi;
5. O'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;
6. imkoni bo'lsa grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish-tushuntirish;
7. o'quvchilarni yozga insho va bayonlarini o'zlari tekshrishiga va mustaqil takomillashtirishga maxsus o'rgatish. Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi ham har bir sinf o'quvchilari uchun 3-4- sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi. Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi. O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'irlab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning keli chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'irlashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'irlashi hisoblanadi. Agar o'quvchi xatosini to'g'irlay olmasa uni o'qituvchi to'g'irlaydi. Xato turiga qarab to'g'irlanadi: gap yoki so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi. Inshoni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi 20-25 daqiqasi ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi, yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'irlash yuzasidan topshiriq beradi:” noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring”. Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi. O'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib to'g'irlaydilar va tushuntiradilar.

O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat 3 ta asosiy omilga bog'liq:

1. so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi ya'ni nutqiy sharoit;
2. bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;
3. nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya, stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasi.

2.2. 3-sinfda rasm asosidagi inshoni o'tkazish metodikasi.

O'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirish bugungi kungacha umumta'lim maktablari oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. O'quv dasturida nutq matn va gapni farqlash, og'zaki va yozma nutqni to'g'ri shakllantirish, matn mavzusini qayta hikoyalash, matndagi asosiy fikrni aniqlay olish, matning tuzilishini aniqlash, uni qismlarga ajratish, ular orasidagi bog'lanishni izohlay olish, matnga sarlavha topish ishlari kiritilgan. Shuningdek ta'limiy insho bo'yicha qismli rasmlar va mavzular bitta rasmda ifoda etilgan ko'rinish asosida o'qilgan, kuzatilgan, eshitilgan voqea-hodisalar asosida material to'plash, reja va shu asosda insho yozish, bayon va insho rejalarini tuzishda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'llash kabi amaliy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan. 3-sinf "ona tili" darsligining 3-sahifasida "Gulla, yashna, hur O'zbekiston!" bobi berilgan bo'lib, mavzuga oid rasm berilgan. "O'quvchilar 1-sentabr O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligi kuni" mavzusidagi rasm yuzasidan hikoya tuzadilar. 5-sahifada esa "Nutq, gap, so'z" bo'limida rasm berilgan. 1-rasmda rasmga qarang, rasm asosida hikoya tuzing, hikoyangiz 4-5-gapdan iborat bo'lsin, hikoyangizga sarlavha toping topshirig'i berilgan. O'quvchilar maktab va o'quvchilar tasvirlangan rasm yuzasidan og'zaki hikoya tuzadilar. 10-mashqda esa "Uy ishlariga yordam" mavzusida insho yozadilar. Insho rejasi butun sinf o'quvchilari va o'qituvchi rahbarligida tuziladi.

Reja:

1. Kuz keldi.
2. bog'da mevalar pishdi.
3. uy ishlariga yordam.

Kuz keldi. Bog'da mevalar g'arq pishdi. Salima va Anvar olma terishda oilasidagilarga ko'maklashdi. Olmalarni alohida idishlarga joylashdi. Farzandlarining yordamidan ota-onalari rosa xursand bo'lishdi.

51-52 rasmlar

Insho yozib bo'lingach, xatolar ustida ishlanadi, insholarni tekshirishda o'quvchilardan biri-ikkinchisining inshosini tekshirish topshiriladi. O'quvchilar bunday tartibda insho xatosi ustida ishlashda ma'suliyatlari oshirilib, fikrlash doiralari kengaytiriladi. 18-mashqda " Kuz fasli", 98-mashqda "Biz sportni sevamiz" mavzusida 4-5gapli matn tuzish berilgan. Ma'lumki sport sog'lik garovi. Prezidentimiz I.A. Karimov aytganlaridek: - "Hech bir narsa mamlakatni sport kabi mashhur qilolmaydi". O'quvchilarni yoshligidan jismoniy tarbiyasiga e'tibor berish, har bir yosh avlodni Vatanga sodiq farzandlar ruhida tarbiyalash-boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifasidir.

54-rasm

219-mashqda rasmni diqqat bilan kuzating, savollarga javob bering va javobingiz asosida hikoya tuzing, degan topshiriq berilgan.

1. dehqonlar issiqxonaga nima ekanlar?
2. dehqon va o'quvchilar nima qilishyapti?
3. tuzgan hikoyangizga sarlavha toping va yozing.

Qo'yish uchun so'zlar: issiqxona, pomidor, bodring, tuproqni yumshatishyapti, pomidor terishyapti, suv qurishyapti, hosil mo'l, dalaga jo'natildi. Rasmni diqqat bilan kuzatib, unga "Issiqxonada" deb sarlavha qo'yiladi, quyidagicha hikoya tuziladi:

Issiqxonada.

Dehqonlar issiqxonaga pomidor, bodring ekanlar. Dehqonlar gullarga suv quyishyapti. Pomidor va bodringlarni yetilib pishganlarini yig'ib, terib olishyapti. Issiqxonada yetilgan sabzavotlar shaharliklarga yetkazib berilyapti.

300-mashqda quyidagicha topshiriq berilgan: Rasmda qaysi fasl tasvirlangan? Bolalar nima qilyaptilar? Hikoyaning boshlanishini o'qing. Qolgan qismini o'zingiz davom ettiring.

Bahor fasli. Bolalar dalaga chiqdilar. Ular chuchmoma va lola tergani har tarafga tarqaldilar. Sanjar Sadoqatga lola sovg'a qildi. Anvar va Muhayyo gullardan guldasta yasadilar.

Mashqni ishlash davomida fe'llarni aniqlash va ularga so'roq berish topshiriqlari bajartiriladi. O'quvchilar chiqdilar, tarqaldilar, sovg'a qildi, yasadilar kabi so'zlarni fe'l ekanini aniqlaydilar.

315-mashqda rasmga qarab gaplar tuzish, tuzgan gaplaringizdan "Qushlar jasorati" degan hikoya tuzish topshirilgan. Hikoyada qarg'aning daraxtga, uyga qurib, bola ochgani, bolalarini parvarish qilayotganida daydi mushukning, daraxtga tirmashib chiqib, hamla qilayotgani tasvirlangan.

Ona qarg'aning mushukka tashlanib, uni cho'qib, daraxtdan tushirib yuborayotgani tasvirlangan. O'qituvchi o'quvchilarga qushlar hayotidan tasvirlangan bu voqeani hikoya qilar ekan, onalar bolalari uchun har qanday jasoratga tayyor ekanliklarini gapirib beradi.

364-mashqda tasvirlangan rasmda o'quvchilar diqqat bilan kuzatib, shu asosda hikoya tuzadilar. Unda mushukning akvariumdan baliqni tutish uchun harakat qilib, suvga tushib ketgani, tuklari shalobba bo'lib, akvariumdan chiqqani tasvirlangan. Hikoyada gap bo'laklarini aniqlash topshiriladi. O'quvchilarning nutqini o'stirishda insho o'tkazilishining ahamiyati katta. 3-sinfda ko'proq rasm asosida ta'limiy insholarni o'tkazish orqali o'quvchilarning fikrlash doirasi kengaytirilib, erkin mulohazaga o'rgatiladi.

1. 4-sinfda hikoya tarzidagi insholar o'tkazish yo'llari.

4-sinf o'quvchilari DTS bo'yicha ona tilidagi o'quv, bilim, malakalarni ancha o'zlashtirgan bo'ladilar. Biz buni Urganch shahridagi 5-son umumta'lim maktabida malakaviy amaliyot o'tagan paytimizda guvohi bo'ldik.

Hozirgi kunda ona tili ta'limi bo'yicha DTSga ko'ra 3 omilga erishish ko'zda tutilmoqda:

1. ijodiylik.
2. mustaqil fikrlash;
3. fikr mahsulini nutqiy vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma shaklda to'g'ri ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Har uch omil o'quvchilarni lug'at boyligini oshirishni nazarda tutadi. O'qituvchi shu omillar orqali o'zining boy lug'at xazinasini namoyish etishi mumkin. Biz hozirga qadar o'quvchilar savodxon bo'lsa bas deb, ona tili ta'limiga yetarli e'tibor bermadik.

Boshlang'ich maktabda olingan ko'nikmalar keyingi sinflarda mustahkamlanadi. Agar o'quvchi 2-sinf hikoyasida 15-20so'zni ishlatib, matn tuzsa, 4-sinfda 75-80so'zni qatnashtirib, matn tuzish imkoniyatiga ega bo'ladi. 4-sinf o'quvchilarida ijodiy imkoniyatlarni tarkib toptirish maqsadida insholar o'tkazilib beriladi.

4-sinfda rasm asosidagi insholarni o'tkazish, ularni mustaqil fikrlashlarini shakllantirish, xotira va idrokni tarkib toptirish asosida tashkil qilinadi.

Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. lar tuzgan "Ona tili" darsligi (4-sinf darslik) o'qituvchi nashriyotida chop qilingan (T.-2011). Darslikda o'quvchilar tomonidan ijodiy matn tuzishga mo'ljallangan quyidagi mashqlar berilgan.

33-mashq. Rasm asosida berilgan so'zlardan foydalanib, matn tuzing.

Qovun sayli.

Tog'a, Hasan, Husan, Munisa, katta dala, yetilgan qovunlar, shiypon, umrboqi, ko'kalapish, Doniyor, Qo'zivoi, uzilgan, dumalab yotardi, shirin.

82-mashq. Rasmni kuzating, rasm asosida 3-4gapli hikoya tuzing. Hikoyangizga sarlavha qo'ying. Rasm asosida tuzilgan hikoyangiz nima deyiladi?

85-mashqda "Bizning oilamiz" mavzusida hikoya tuzing va yozing.

90-mashq. Rasm asosida insho yozish.

Reja:

1. Kuzda ob-havo.
2. Kuzda tabiat ko'rinishi.
3. Kuzgi ishlar.

O'zingiz yashab turgan shahar, qishlog'ingizdagi kuz ko'rinishini tasvirlab, "Kuzda" sarlavhali insho yozing. Mavzusini yoritishda "Kuz" she'ridan rasmdan kuzatishlaringiz asosida to'plangan materiallaringizdan foydalaning. Reja asosida fikringizni bayon qiling.

Kuz.

Shukur Sa'dulla.

G'ir-g'ir shamol yeladi,
Buni hamma biladi.
O'giradi yelga yuz,
-Marhamat kel, oltin kuz!
Maktab borar o'g'il-qiz,
Qo'lda kitob hamda gul.
Oltin oqar daladan,
Tong yorishgan palladan.
Quyosh tushar taftidan,
Qo'rqib qishning aftidan.
Sarg'ayadi ko'katlar,
Barg to'kadi daraxtlar.
Hosil yig'ib olinar,
Qishga zamin solinar.

Insho yozib bo'lingach, o'quvchilar bilimi, o'qituvchi tomonidan tekshiriladi va baholanadi.

320-mashq. Rasm asosida insho yozishga mo'ljallangan. Insho yozishda berilgan rejadan foydalanish uqtiriladi.

Reja:

1.Qish faslida tabiatning ko'rinishi.

2.Bolalar tabiat quchog'ida.

65-rasm

3-sinf o'quvchilaridan Bobojonova Iqboloy, Sobirova Jamila, Shonazarova Go'zalxonlar yuqoridagi mavzu yuzasidan insho yozganlar. Ularning fikrlash qobiliyatlari keng. Inshoda har bir elementar predmetlarni tasvirlashga harakat qilganlar.

Assalom, Navro'z! rasmi darslikning 152-sahifasida berilgan. Rasmni kuzatar ekanmiz Toshkentdagi O'zbekiston Milliy bog'ida Alisher Navoiy hazratlarining haykallari poyida o'tkaziladigan Navro'z bayrami mavzusida

ayrim lavhalarning guvohi bo'lasiz. O'quvchilar o'z so'zlari bilan hikoya tuzadilar.

427-mashqda esa rasmni kuzatish, rasm asosida hikoya tuzish, hikoyaga sarlavha qo'yish topshirilgan. Hikoyada to'xtang, ogoh bo'ling, yordamlashing, o'ting, qarang so'zlaridan foydalanish topshirilgan. Shu fe'llarni o'z maqsadingizga muvofiq shaxs-sonda qo'llash vazifasi berilgan. Darslikdagi 179-sahifada berilgan 9-may "Xotira va qadrlash kuni" mavzusida berilgan rasmni har bir o'quvchiga yaxshi qilib ta'riflab berish lozim. Unda Toshkentdagi "Motamsaro ona" monumenti va 1941-1945-yillarda urushga ketib, halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan jangchilar xotirasiga bag'ishlangan "Xotira maydoni" rasmi tasvirlangan.

3.2. 4-sinfda o'quvchilar inshosini tahlil qilish.

Hamma sinflarda yoziladigan insholarda yoziladigan insholarda orfografiya va punktuatsiya katta qiyinchilik tug'diradi. Bolalar boshlang'ich sinfda insho yozishda hali imlosi o'rganilmagan so'zlar, nazariy va amaliy jihatdan tanishilmagan gaplar: uyushiq bo'lakli gaplar, uyushiq bo'laklarda umumlashtiruvchi so'zlar, qo'shma va ko'chirma gaplarni qo'llashlari tabiiydir.

Buning natijasida ular ko'pgina xatolarga yo'l qo'yadilar. Bu xatolar inshoning umumiy sifatiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Xatolarning ko'payib ketishi esa insho sifatining pasayishiga, mustaqil ishlashga endigina ko'nikma hosil qilib kelayotgan bolaning inshoga bo'lgan qiziqishini

so'ndirishga va ularning tushkunlikka tushishlariga olib keladi. Ayrim o'qituvchilar bunday xatolarni ko'payib ketish xavfidan qo'rqib, insho masalasini bir tomonga surib qo'yadilar. Bunday o'qituvchilar o'quvchilar nutqini o'stirishdagi eng asosiy vositalardan biri insho ekanligini to'g'ri tushunmaydilar. Buning natijasida o'quvchilarda bog'lanishli matn ustida ishlash malakalarini o'stirish ishlariga salbiy ta'sir ko'rsatadilar. Shuni aytish kerakki, insho o'quvchilar nutq madaniyati umumiy rivojlanishining asosi hamdir.

N.S. Rojdestvenskiy "Biz bolalarning madaniy nutq malakalarini yuqori ko'tarishda ularning orfografik savodxonliklarini ham ta'minlaymiz!" –deb, juda to'g'ri ko'rsatgan.

Orfografiya yozma nutqning asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, u inshoda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ayrim o'qituvchilar inshoda orfografik xatolarning ko'payib ketmasligi uchun so'zni bir necha o'rinda ishlatilishi va dialectal xatolarga befarq qarashlari natijasida insho mazmunining sayoz bo'lib qolishiga sababchi bo'lib kelmoqdalar. Biz inshoda o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilishi mumkin. bo'lgan xatolarni oldini olish uchun quyidagicha ish ko'rdik:

Bunda insho matnini jamoa bo'lib tuzish usulida ish olib boriladi.

2. 3 va 4-sinflarda xatolarning oldini olishda eng samarali ish turlaridan biri inshoda uchraydigan imlosi qiyin so'zlar ustida ishlashdir. Insho materiali ustida ishlashda yangi so'zlarning yozilishi ko'rib chiqiladi. Insho ustida ishlash jarayonida lug'aviy-orfografik tayyorgarlikning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

a) bolalar ayrim so'zlarning oxiridagi ba'zi tovushlarning o'zgarishini esda yaxshi saqlab qolganlaridan keyingina ularni inshoda to'g'ri yozadigan bo'ladilar. Masalan, tog'-toqqa, ko'prik-ko'prigi-ko'prikdan, sof havo, gurkirab ketadi, sayohatga chiqamiz kabilar.

b) inshoda qo'llanadigan so'zlar ona tili darslaridagi og'zaki va yozma mashqlarda ishlatiladi hamda ular diktant va bayon matnlariga kiritiladi.

d) navbatdagi yoziladigan inshoda uchraydigan yangi va imlosi qiyin so'zlarning orfogrammasi plakatga aniq qilib yoziladi, insho yoziladi, insho yozishdan bir necha kun oldin sinfga osib qo'yiladi.

e) insho o'quvchilar tomonidan og'zaki ifodalayotganda imlosi o'rganilmagan so'zlar doskaga yozib beriladi.

3. Insho yozdirishdan oldin ma'lum darajada hozirlik ko'rish zarur. Shu maqsadda 5-10 daqiqa vaqt ajratilib, alohida gaplar tuzish va insho miniaturalar yozish mashq qilinadi.

4. Ba'zan o'quvchilar so'zlarning orfografik qoidasini yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlariga qaramay, yozuv jarayonida qoidani unutib, xatoga yo'l qo'yadilar. O'qituvchilar ko'pincha " o'quvchilar yozma ishning tartibini yaxshi biladilar" degan fikrda bo'lib, yozma ifodaga o'tishdan ilgari yozma ish tartibi orfografiya qoidalarini eslash kollegrafiya rioya qilish, o'rtog'idan ko'chirmaslik, uning fikrini buzmay, o'zi mustaqil yozish lozimligini tushuntirib o'tmaydilar. Buning natijasida o'quvchi ishni pala partish bajarish, yozuvda diqqat e'tibor qilmaslik natijasida gapning tugallangan o'rnini to'g'ri aniqlamaydilar. Y, O', Q, H harflarining dialektik belgilarini tushirib qoldiradilar. Ba'zan esa so'zdagi butun bir harf, hatto butun bir bo'g'inni qoldirib yozish hollari ham uchraydi.

O'quvchilar inshoda ko'chirma gap, uyushiq bo'lakli gaplar va qo'shma gaplarda ko'pincha punktuatsion xatolarga yo'l qo'yadilar. Biz bunday gaplardagi punktuatsion xatolar ikki nuqta, vergulning oldini olishda ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantirib yozishda tushuncha berib, uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishini ko'rsatib berdik. Ma'lumki, ko'pgina bolalarning psixologiyasida uyatchanlik, tortinchoqlik, o'z-o'ziga ishonmaslik sifatlari sezilib turadi. Ular o'qituvchida biror narsani so'rashga ju'rat qila olmaydilar. Bu bolalarga alohida e'tibor berish natijasida ulardagi psixik xususiyatlar asta-sekin yo'qolib bordi hamda ularning inshoga havasi ortib, orfografik ongliligi o'sdi va insholarni yoza boshladilar.

Yozma ishlardagi xatolarning oldini olish borasida o'z-o'zini tekshirish masalasiga ham vaqt ajratdik. Bunda o'quvchi oldiga aniq orfografik vazifalar qo'yildi. Masalan, insho yozish darsining oxirida doskaga quyidagi topshiriqlar yozilgan plakatlar osib qo'yiladi.

Tekshiring.

Biror harfni tushirib qoldirdingizmi?

Jarangli va jarangsiz undoshlarni to'g'ri yozdingizmi?

So'z oxiridagi t, d undoshlarini tushirib qoldirmadingizmi?

4-sinfda bolalar ko'pgina grammatik qoidalar bilan tanishadilar. Shuni nazarda tutib, biz ulardan eng muhimlari yuzasidan quyidagi topshiriqlarni belgilab bordik. Masalan,

- 1.kelishik qo'shimchalarini qanday ishlatganingizni ko'rib chiqing.
- 2.qo'shma fe'llarni to'g'ri yozdingizmi?
- 3.men, sen olmoshlarining qaratqich va tushum kelishigi bilan qanday turlanishini eslang.
- 4.uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarini tushirib qoldirmadingizmi?

Biz tekshirgan bir qator o'qituvchilarning tajribalarida o'z-o'zini tekshirish uchun o'quvchilarga aniq vazifalar topshirilmay, o'quvchilar ishini yozib tugatganlaridan keyin, "yozganlaringizni o'qib chiqing", deyiladi. Bunday topshiriqning maqsadini tushunib yetmagan o'quvchilar ishlarini yuzakigina o'qib chiqadilar, ba'zan o'qituvchilarga o'qimay topshiradilar. Bu ishga o'qituvchi va o'quvchilarning befarq qarashlari yozma ishlarda imlo xatolarining ko'payib ketishiga ta'sir ko'rsatmoqda. O'quvchilarning insholarida orfografik va punktuatsion xatolarning oldini olishda biz tomondan qo'llangan tajribalar o'quvchilarning orfografik onglilik darajasini oshirishga ma'lum darajada yordam ko'rsatadi.

Xulosa.

Boshlang'ich ta'limning hozirgi kundagi muhim vazifalaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarni vatanparvarlik, xalqparvarlik ruhida tarbiyalashdir. Negaki bugungi jajji bolajonlar mustaqil O'zbekistonimizning kelajagidir.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Vatanparvarlik, fuqarolar yakdilligini yosh va mustaqil O'zbekiston davlatining barpo etilayotgan negizi" hisoblanadi.

Biz bo'lajak pedagoglar ana shu nuqtai nazar orqali o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishimiz lozim. Maktab ostonasiga qadam qo'ygan yosh bolaning qalbi xuddi hali hech nima yozilmagan oppoq daftarga o'xshaydi. Bu daftar varaqlariga biz pedagoglar nimani yozsak, shu narsa bola qalbiga muhrlanib boradi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni barkamol avlod ruhida tarbiyalashda ona tili darslarining alohida o'rni bor. Ona tili darslarida bog'lanishli nutqni o'stirish ayniqsa muhimdir.

Nutq faoliyati uchun, shuningdek, o'quvchilar nutqini o'stirish uchun bir necha shartga rioya qilish talab qilinadi.

1.kishi nutqining yuzaga chiqishi uchun talab bo'lishi kerak. O'quvchilar nutqini o'stirishning metodik talabi o'quvchi o'z fikrini, nimanidir og'zaki va yozma bayon qilish hohishini va zaruriyatini yuzaga keltiradigan vaziyat yaratish hisoblanadi.

2.har qanday nutqning mazmuni, materiali bo'lishi lozim. Bu material qanchalik to'liq, boy, qimmatli bo'lsa, uning bayoni shunchalik mazmunli bo'ladi.

3.bir tinglovchi tushunadigan so'z, so'z birikmalari, gap, nutq birliklari yordamida ifodalansagina tushunarli bo'ladi. Shuning uchun nutqni muvaffaqiyatli o'stirishning 3-sharti nutqni til vositalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

Nutq o'stirishda 3 yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) So'z ustida ishlash;
- 2) So'z birikmasi ustida ishlash;
- 3) Bog'lanishli nutq ustida ishlash;

Bog'lanishli nutqning asosiy turlaridan biri-insho bo'lib, biz o'z ishimizda insho to'g'risidagi nazariy va amaliy tushunchalarimizni yoritdik.

“Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish (3-4-sinf misolida)” mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishimizda Urganch shahridagi 5-son umumta'lim maktabida malakaviy amaliyot davridagi ish tajribalarimizni ham o'rtoqlashdik. O'quvchilarning insho yozish paytida yo'l qo'yiladigan xatolar va ularni bartaraf qilish yo'llari belgilab olindi. Rasm asosidagi va hikoya tarzidagi insholarni o'tkazish metodikasi keng tahlil qilindi.

Mazkur ish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun metodik tavsiyanoma bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Karimov I.A Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.-T:"Sharq"1997.
- 2.Karimov I.A Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch-T:"Ma'naviyat"2008.
- 3.Karimov I.A Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz-T:"O'zbekiston"2000.
4. Boshlang'ich ta'lim bo'yicha yangi tahrirdagi davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi "Boshlang'ich ta'lim" jurnali-T:2005-N5.
- 5.Uzviylashtirilgan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi-T:2010.
- 6.Abdullayeva Q., Rahmonbekova S. "Ona tili darslari" (1-sinf o'qituvchilari uchun qo'llanma)-T:2005.
- 7.Abdullayeva Q. va boshqalar. Savod o'rgatish darslari-T:"O'qituvchi"2007.
- 8.Ikromova P va b. Ona tili (4-sinf uchun darslik)-T:"O'qituvchi"2007.
- 9.Qosimova K., Matchanov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Soriyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi-T:"Nosir"2009.
10. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. 2-sinf uchun darslik-T:"Cho'lpon"nashriyoti2008.

- 11.Qosimova K. va b."2-sinf ona tili darslari"-T:"Cho'lpon"2004.
- 12.Qodirov M. va b. Ona tili 8-sinf uchun darslik. Cho'lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi-T:2010.
- 13.Safarova R va b. Savod o'rganish darslari-T:"Ma'naviyat"2003.
- 14.Safarova R. va b. Alifbe-T:"Ma'naviyat"2008.
- 15.Xudoyberganov M., Muxtorova M. 3-sinfda ona tili darslari-T:"O'qituvchi"2005.
- 16.Ziyodova M. "O'quvchilarni mustaqil o'qishga o'rgatish".
- 17.G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili (1-sinf uchun darslik) –T:"Sharq"2005.
- 18.G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shermatova I. 4-sinfda ona tili darslari-T:"O'qituvchi"2003.
19. Ochil Roziqov, Mels Mahmudov, Baxtiyor Adizov, Alijon Hamroyev Ona tili didaktikasi-T:"Yangi asr avlodi"2005.
- 20.T.Ziyodova O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish-T:"O'qituvchi"2001.
21. w.w.w.ziyonet.uz
22. w.w.w.google.uz

Mundarija.

Kirish.....	3
-------------	---

I-bob.

Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari.

1.1. Bog'lanishli nutqqa oid asosiy ko'nikmalar.....	18
--	----

II-bob. 3-sinfda insho yozishga o'rgatish.

2.1. 3-sinfda insho yozish uchun material to'plash, rejasini tuzish, inshoni yozishga tayyorlanish.....	28
---	----

2.2. 3-sinfda rasm asosidagi inshoni o'tkazish metodikasi.....	49
--	----

III-bob. 4-sinfda o'tkaziladigan insho turlari va ular ustida ishlash.

1.1. 4-sinfda hikoya tarzidagi insholarni o'tkazish yo'llari.....	59
1.2. 4-sinfda o'quvchilar inshosini tahlil qilish.....	68

Xulosa.....	78
-------------	----

Foydalanilgan adabiyotlar.....	81
--------------------------------	----

Urganch Davlar Universiteti Pedagogika fakulteti kunduzgi bo'limi 5141600 BT
va STI ta'lim yo'nalishi bitkazuvchi Dosova Yulduzning "Boshlang'ich sinflarda
insho yozishga o'rgatish" (3-4sinf misolida) mavzusidagi bitiruv- malakaviy ishiga

TAQRIZ

O'quvchilarni erkin fikrlashga o'rgatish, o'z fikrini aniq tushunarli, ta'sirchan bayon qilishlarini ta'minlash boshlang'ich sinf o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biridir. Shu sababli ham prezidentimiz I. A. Karimov o'zining qator nutqlarida maktab shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga yuksak masuliyatlar yuklanishini aytib o'tgan. Yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan ta'lim tizimidagi tarbiyani yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo'llari: jamiyatdagi tarbiyaning ijtimoiy mavqeini oshirish, umumta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, yagona ta'limiy makonni yaratish, jamiyat madaniyati va ilm fanning yangi yutuqlarini ta'lim dargohlarida qo'llash hisoblanadi.

Bugungi kunda yosh avlod tarbiyasi, ularning yangicha bilim egallashlari uchun barcha imkoniyatlar yaratib berilgan. Zamonaviy o'quv dargohlari, kompyuter texnologiyalari o'quvchilar xizmatida.

Talaba " Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish" mavzusi bo'yicha bitiruv malakaviy ishini yozar ekan, an'anaviy izchillikda reja tuzgan. Reja asosida ishni tizimli ravishda bayon etgan . Ishning kirish qismida "Ta'lim to'g'risidagi qonun", Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasidan foydalanib, boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy vazifalarga to'xtalgan.

Talaba ishiniing 1 va 11 boblarida 3-4 sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishga oid bir qator metodik maslaharlarni bayon qilgan/

Talabaning bitiruv malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv malakaviy ishini bajarish Nizomiga asosan yozilgan deb hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun himoyaga tavsiya qilaman.

Taqrizchi:

M. Tilavova

Urganch Davlar Universiteti Pedagogika fakulteti kunduzgi bo'limi
5141600 BT va STI ta'lim yo'nalishi bitkazuvchi Dosova Yulduzning
“Boshlang'ich sinflarda insho yozishga o'rgatish” (3-4sinf misolida)
mavzusidagi bitiruv- malakaviy ishiga

TAQRIZ

Barchamizga ma'lumki, mamlakatimizda istiqlool shabadalari esganiga 20 yildan oshiq vaqt o'tdi. Bu o'tgan davr mobaynida yurtimiz misli ko'rilmagan tarzda o'zgardi, yangicha qiyofaga kirdi. Ayniqsa turli sohalarda qabul qilingan hukumat qarorlari va farmoyishlari kelajagimizni oldindan belgilab berishimizga zamin xozirlaydi. Yurtimizda yoshlar ta'lim- tarbiyasiga davlat siyosatining muhim yo'nalishi, ijtimoiy hayotning ajralmas qismi, tarixiy madaniy an'analarga eltuvchi omil sifatida katta e'tibor berib kelinadi. Yangi sifat bosqichiga ko'tarilgan ta'lim tizimidagi tarbiyani yanada taraqqiy ettirishning asosiy yo'nalishlari; jamiyatdagi tarbiyaning ijtimoiy mavqeini oshirish, umumta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni boshqarishni takomillashtirish, yagona ta'limiy makonni yaratish, jamiyat madaniyati va ilm fanning yangi yutuqlarini ta'lim dargohlarida qo'llash hisoblanadi.

Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish va ona tili fanlaridan o'tkaziladigan ishlarga alohida ahamiyat qaratiladi. Shu nuqtai nazardan bog'lanishli nutqning bir turi hisoblangan o'quvchilarni insho yozishga o'rgatish og'zaki va yozma nutqni rivojlantirishga qaratilganli boiz dolzarb hisoblanadi.

Dosova Yulduz bitiruv malakaviy ishini yozish uchun an'anaviy tarzda reja tuzgan. Reja asosida ishni tizimli ravishda bayon etgan. Ishning kirish qismida “Ta'lim to'g'risidagi qonun”, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Boshlang'ich ta'lim Konsepsiyasidan foydalanib, boshlang'ich ta'lim oldida turgan asosiy vazifalarga to'xtaldik.

Talaba ishining 1 va 11-boblarida 3-4 sinf o'quvchilarining og'zaki nutqini rivojlantirishga oid bir qator metodik maslahatlarni bayon qilgan.

Talaba ishini yozish jarayonida o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda rasm asosidagi tasvir va muhokama elementli insholarni yozish va shu yuzasidan nutqiy xatolar ustida ishlash yuzasidan fikrlarini qayd qilgan. Shuningdek, metodik adabiyotlardan foydalanib, hamda shaxsiy malakaviy amaliyot davridagi tajribalarga asoslanib, ishni yoritgan.

Talabaning bitiruv- malakaviy ishi Oliy ta'lim muassasalarida bitiruv-malakaviy ishini bajarish Nizomga asosan yozilgan deb hisoblayman va bakalavr darajasini olish uchun ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

Abdullayeva I. Urganch shahridagi 6-son

umumta'lim maktabi

boshlang'ich sinf o'qituvchisi.